

**BOJXONA SOHASIDAGI HUQUQBUZARLIKLAR
VA ULARNI OLDINI OLISH**

Jasurov Olmos¹

¹ Bojxona instituti 2-kurs kursanti

F.Qarshiboyev²

² Ilmiy rahbar:

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.12.2024

Revised: 24.12.2024

Accepted: 25.12.2024

Bu maqolada bojxona sohasida uchrab turuvchi huquqbuzarliklarning bir necha ko`rinishi va ularni oldini olish chora tadbirlarini ko`rib chiqish maqsad qilib olindi.

KALIT SO`ZLAR:

*Bojxona sohasi,
bojxona organlari,
huquqbuzarlik,
qonunchilik, huquqiy
madaniyat, jismoniy
shaxslar, fuqarolar,
bojxona organlari
mansabdor shaxslari.*

KIRISH. Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan kuchli siyosat mamlakatimizdagi barcha soha va yo'nalishlarga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu jumladan tez suratlarda rivojlanib borayotgan bojxona sohasida ham qator yangiliklar va ijobiy o'zgarishlarni guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu kabi jadal rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lmish adolatli huquq tizimi prinsipiga asoslanib O'zbekiston Respublikasida barcha soha va jabhalar huquqiy jihatdan; qonunlar, qonunosti hujjatlar va turli xil normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. Shunday bo'lsada mamlakatimiz hududida huquqbuzarlik holatlari ham uchrab turadi. Bu kabi holatlar esa bojxona sohasi uchun ham begona emas.

Bojxona Kodeksinining 6-moddasida Bojxona maqsadlari birma bir sanab o'tilgan bo'lib ulardan biri bu "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollariga chek qo'yish va ularning oldini olish". Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi 502-son "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida keltirib o'tilgan bojxona organlarining asosiy vazifalari orasida "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish"

=====

jumlalari keltirib o'tilganligi ham bojxona organlarining huquqbuzarlik holatlarini kamaytirish va uni bartaraf etishga qaratayotgan katta e'tiboriga yaqqol misol bo'la oladi.

Huquqbuzarlikka qarshi kurashdagi eng samarali usul huquqbuzarlikning sabablari va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralari ko'rish hisoblanadi. Shu bois qonunchilikda ham ishni yuritishga mas'ul bo'lgan vakolatli mansabdor shaxslarning eng muhim vazifasi huquqbuzarlikning oldini olish choralari ko'rish hisoblanadi. Huquqbuzarlikning oldini olish tergov qilinayotgan yoki muhokama qilinayotgan huquqbuzarlikning kelgusida takroran sodir etilishiga yoki xuddi shu kabi boshqa yangi huquqbuzarliklar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudning faoliyati, shuningdek, ushbu shaxslarning talabi bilan mas'ul shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ishlar yig'indisidir.

Huquqbuzarlikning oldini olish bu huquqbuzarlikning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etuvchi yoki ularni zararsizlantiruvchi (susaytiruvchi cheklov) va bu bilan ularning kamayishini ta'minlovchi davlat, jamoat va boshqa ta'sir xususiyatiga ega bo'lgan choralarning kompleks tizimidir. Uning asosini, birinchi navbatda, davlatning xalq farovonligini oshirish, kishilarning dunyoqarashi va madaniyatini yuksaltirish, mehnat va ijro intizomini mustahkamlash, shaxsning asosiy huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlash borasidagi g'amxo'rliqi tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi hisoblanuvchi yagona bojxona siyosati amalga oshiriladi. Bojxona siyosatining asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida samarali bojxona nazoratini hamda tovar ayirboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iboratdir. Bu maqsadlarga erishish esa bojxona sohasini o'z qonunchiligini ishlab chiqish orqali tartibga solishni ta'lab etadi. Bojxona to'g'risidagi qonunchilik bir necha qonun hujjatlar, xalqaro shartnomalar va boshqa shu kabi normativ huquqiy hujjatlardan iboratdir. Bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar esa ana shu qonun hujjatlarga, umuman olganda bojxona qonunchiligiga rioya etmaslik, uni chetlab o'tishga urinish oqibatida yuzaga keladi. Bu kabi holatlarning bir necha ko'rinishlari mavjud bo'lib, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning ayrim moddalariga bunga misol bo'la oladi. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 262-moddasida Bojxona organlari haqida quyidagicha ma'lumot keltirilgan:

“Bojxona organlari ushbu Kodeksning 227, 227¹, 227², 227³, 227⁵, 227⁶, 227⁷, 227¹⁰, 227¹¹, 227¹²-moddalarida, 227¹³-moddasining uchinchi qismida, 227¹⁶-moddasining birinchi qismida, 227²²-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

Bojxona organlarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari bojxona organlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va jarima tariqasidagi ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rishga hamda jarima tariqasidagi ma'muriy jazo choralarini qo'llashga bojxona organlarining bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshiradigan bosh inspektorlari, katta inspektorlari (inspektorlari) haqlidir".

Yuqorida sanab o'tilgan moddalarda bojxona sohasida sodir etiladigan huquqbuzarliklar keltirib o'tilgan bo'lib ularning har biri uchun ma'muriy jazo chorasi tayinlangan. Quyida ulardan birini ko'rib chiqamiz.

227⁸-modda. Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalari bilan g'ayriqonuniy operatsiyalar, shuningdek bojxona organining ruhsatisiz yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar o'tkazish

"Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalari bilan operatsiyalar o'tkazish, belgilangan talablar va shartlarni buzib, ularni holatini o'zgartirish, ulardan foydalanish, –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarini bojxona organining ruxsatisiz transportda tashish, ortish, tushirish, qayta ortish, buzilgan o'rovni tuzatish, o'rash, qayta o'rash yoki tashish uchun qabul qilish, shunday tovarlardan namunalar va nusxalar olish, mazkur tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan binolar va boshqa joylarni ochish, –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalarini tasarruf etish, –

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oʻttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa – oʻttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab boʻladi.

Huquqbuzarlikni toʻliq tushunish va unga toʻgʻri baho berish uchun avvalo biz uni tarkibini bilib olishimiz lozim. Maʼlumki huquqbuzarlikning toʻrtta tarkibiy qismi mavjud. Bular huquqbuzarlikning obyekti, subyekti, obyektiv tomoni va subyektiv tomonidir. Yuqorida keltirilgan moddada huquqbuzarlikni tarkibiy qismlarini aniqlagan holda uni quyidagicha tahlil qilish mumkin.

Obyekti: Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartibi.

Obyektiv tomoni: Mazkur huquqbuzarlik ham harakat ham harakatsizlik oqibatida sodir etiladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalari bilan operatsiyalar oʻtkazish, belgilangan talablar va shartlarni buzib, ularning holatini oʻzgartirish, ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish – bu harakatdir.

Vaqtincha olib kirilgan tovar (ushbu rejimdagi tovarlar oʻzgarmas holatda qolishi shart) bilan uning but saqlanishini taʼminlash uchun zarur operatsiyalarni, shu jumladan mayda taʼmirlash operatsiyalarini, bundan uni kapital taʼmirlash va modernizatsiya qilish mustasno, texnik xizmat koʻrsatish va tovarni soz holatda saqlab turish uchun zarur boshqa operatsiyalarni amalga oshirmasa – bu harakatsizlikdir.

Subyekti: Maʼmuriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda 16 yoshga toʻlgan aqli raso jismoniy shaxs.

Subyektiv tomoni: Bu huquqbuzarlik qasddan sodir etiladi.

Yuqoridagi moddada keltirilgani kabi qolgan boshqa huquqbuzarlik holatlari ham oʻz sanksiyasiga ega va bu Oʻzbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab qoʻyilgandir. Shunda haqqoniy bir savol tugʻiladi. Shu qadar koʻp qonunlar-u qonunosti hujatlar va shuncha say-harakatlarga qaramay nega huquqbuzarlik holatlari qayta va qayta yuzaga kelaveradi? Bu savolga toʻgʻridan toʻgʻri javob qilib fuqarolarning bojxona qonunchiligi va tartib tamoyillari toʻgʻrisida yetarli bilimga ega emasliklarini keltirish mumkin. Ammo barchaga maʼlumki bilmaslik javobgarlikdan ozod etmaydi. Shu tufayli bojxona organlari fuqarolarda bojxona sohasiga oid huquqiy bilimlarni rivojlantirish maqsadida qator chora tadbirlarni amalga oshirmoqda. Oʻzbekiston Respublikasining 502-son “Davlat bojxona xizmati toʻgʻrisida”gi qonunining 3-moddasida keltirib oʻtilgan bojxona organlarining asosiy vazifalari orasida “Fuqarolarni bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish” jumlasining mavjudligi bojxona organlari bu kabi masalalarga jiddiy eʼtibor berishidan dalolat beradi.

=====

Xulosa qilib aytganda bojxona sohasida huquqbuzarlik holatlarini kamaytirishda bojxona organlarining ishtiroki juda muhimdir. Chunki hozirgi kunda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi yoki bevosita bojxona chegarasi orqali harakatlanuvchi jismoniy shaxslar bojxona organlari hodimlari bilan muloqotga kirishadilar. Ushbu jarayonda bojxona hodimlari fuqarolarga bojxona qonunchiligi to'g'risidagi bilimlar va tartib tamoyillar to'g'risida tushuntirish ishlari olib borishi fuqarolarda huquqiy madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonning samaradorligini yanada oshirish uchun ommaviy axborot vositalarida bojxona sohasidagi huquqbuzarlik holatlarini va ularga belgilangan jazo choralari to'g'risida ko'proq ma'lumot va yangiliklar e'lon qilish yoki televediniya telekanallarida har xil bojxonaga oid holatlarni ko'rsatuvchi va qonunchilikka oid bilimlarni ulashishni maqsad qilib olgan ko'rsatuvlar va shoular tuzish fuqarolarni huquqiy madaniyatini rivojlantirishga nisbatan yaxshiroq ta'sir qilgan bo'lardi. Chunki barchamizga ma'lumki ijtimoiy tarmoqlar va televediniya millionlab kuzatuvchilarga ega. Bu esa birdaniga ko'pchilikka bojxona sohasi va qonunchiligi haqidagi bilimlarni berish imkonini yaratadi. Qancha ko'p fuqarolarning bojxonaga oid huquqiy bilimlari rivojlantirilsa shuncha ko'p huquqbuzarliklarni oldini olish mumkin. Zero huquqbuzarlik holatlarini aniqlash va huquqbuzarlarga jazo choralari qo'llashdan ko'ra huquqbuzarlikni u sodir bo'lmasdan turib bartaraf etish ya'ni uni oldini olish, huquqbuzarlik holatlarini kamaytirishning eng samarali yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi 502-son "Davlat bojxona xizmati to'g'risidagi" qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi.
4. Prof. X. T. Odilqoriyev va B. E. Qosimovning tahriri ostidagi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasining "Ma'muriy huquq" darsligi.
5. F. Qarshiboyevning O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti uchun "Ma'muriy javobgarlik" o'quv qo'llanmasi.